

KORXONALARDA OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH MASALALARI

Qlichev Baxtiyor Pardayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy tahlil” kafedrasi dotsenti

e-mail: b_qilichev@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-6938-7897

Qilichev Botir Pardayevich

Yaponianing Toyo universiteti,

“Xalqaro turizm menejmenti” magistranti

e-mail: botirklichev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi, operatsion faoliyatning samaradorligi tahlilini tashkil etish hamda olingan natijalarning soha rivoji uchun qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: operatsion faoliyat samaradorligi, muammoli jihatlar, tahlilni tashkil etish zarurligi, erishiladigan natijalar

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida iqtisodiy jarayonlar juda tez sodir bo'layotgan, murakkab raqobat tizimi kirib kelayotgan bugungi kun iqtisodiyotimizda korxonalar operatsion faoliyati tahlilida nafaqat iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanganlik, balki, mazkur resurslardan samarali foydalanish jihatlari ham o'rganiladi. Ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish va uni oshirish korxonalar faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda "samaradorlik" tushunchasi daromadlarni oshirish, harajatlarni optimallashtirish, mehnat unumdarligining o'sishi, asosiy vositalar qaytimi, sig'imi, rentabelligi va boshqa samaradorlik ko'rsatkichlari bilan uzviylikda o'rganilsada, biroq, foyda, zarar, daromad, harajat, tannarx, mahsulot bahosi kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilishi bu borada ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilab beradi.

Har bir davlatda iqtisodiyotning turli tarmoqlarining rivojlanishi shu tarmoqda faoliyat olib borayotgan iqtisodiy subyektlarning faoliyatiga, uning natijaviyligiga bog'liq hisoblanadi. Juhon amaliyotida korxonalarining operatsion faoliyati tahlilini tashkil etish va mazkur faoliyat samaradorligini oshirishda turli yo'nalish, usul va metodlardan foydalaniladi. Lekin mazkur usullarda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishning umumiyy jihatlari nazarda tutilgan bo'lib, iqtisodiyotning aniq bir sohasida, shu sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish masalalari nisbatan kam o'rganilgan. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni qo'llash doirasi korxonalar faoliyat olib boradigan tarmoq va sohalar xususiyatidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Shu boisdan, ishlab chiqarish, servis, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa tarmoqlarda har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish va uni

takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi [1].

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri, iqtisodiyotning real sektori korxonalar faoliyatini rivojlantirish asosida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini keskin oshirish, bandlik masalalarini hal qilish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda milliy farovonlikni ta'minlashdan iboratdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan qabul qilingan «Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining ikkinchi bandida keltirilgan "mahsulot ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirish, ulardan samarali foydalanish hamda uni kengaytirish"¹ kabi vazifalarini bajarishda mazkur tadqiqotda erishilgan natijalar muhim ahamiyat kasb etadi. Operatsion faoliyat tahlilini o'tkazish va uni takomillashtirish masalalariga bugungi kunda katta e'tibor qaratish obyektiv zaruratga aylanib, bu bo'yicha yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalihlari hisoblanadi.

Korxonalar operatsion faoliyati tahlilini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natjalarning asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning korxonalar operatsion faoliyati tahlilini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi [2].

Operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish va uni rivojlantirish borasidagi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo'llash faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya va moliya mutaxassisligida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida o'qitiladigan fanlar va modullar bo'yicha o'quv dasturlari va resurslarini takomillashtirish jarayonida foydalanish sohada yetuk kadrlar tayyorlashda ta'lim samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi [3].

Korxonalarda operatsion faoliyat tahlilini zarurligini quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, ishlab chiqarish korxonalarining bevosita funksional vazifasi, mahsulot ishlab chiqarish va sotishni samarali amalga oshirish lozimligi inobatga olinadi. Ikkinchidan, korxonaning investitsion va innovatsion rivojlanishi korxona faoliyat olib boradigan soha rivoji uchun yo'naltiriladi. Uchinchidan, soha rivoji bo'yicha hukumat doirasida qabul qilinadigan qarorlar ijrosi manzilli yo'naltiriladi hamda korxona imkoniyatlari va quvvatlari ham ushbu vazifani bajarishga qodir bo'lishligi ta'minlanadi. To'rtinchidan, barcha mavjud imkoniyat va vositalardan maqsadga muvofiq foydalana oladigan yetarli malakaga ega bo'lган mutaxassislar ham mavjud bo'lishi kerak. Ushbu sanab o'tilgan jihatlar birgalikda ishlab chiqarish korxonalarining operatsion faoliyati samaradorligini tashkil qiladi (1-rasm).

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentning "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 24-yanvar PQ-99-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2022-yil, 07/22/99/0060-son

Operatsion faoliyatda
sodir bo'ladigan
jarayonlar

Ushbu jarayonlarda
aniqlanadigan
ko'rsatkichlar

Operatsion faoliyat
samaradorligi


1-rasm. Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligining shakllanishi jarayoni².

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, operatsion faoliyat samaradorligiga erishish uchun albatta xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo‘lgan jarayonlar natijasi lozim bo‘ladi va ushbu natijalar aniq raqamlarda ifodalangan ko‘rsatkichlarda ham o‘z tasdig‘ini topishi lozim.

Umuman olganda, korxonalarning moliviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligi va natijaviyligi bevosita operatsion faoliyat natijalariga bog‘liq hisoblanadi [4]. Bu birinchidan, operatsion faoliyat korxonaning asosiy daromad olib keluvchi faoliyat turi ekanligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, operatsion faoliyat natijalari moliyaviy va investitsiyaviy faoliyat natijaviyligiga ta’sir etuvchi asosiy omil, ularni harakatlantiruvchi dastak hisoblanadi.

Operatsion faoliyat samaradorligi tahlilini tashkil etishda “samara”, “samaradorlik”, tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur. Bizning fikrimizcha [5], tahliliy ishlar natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflarni amaliyotga joriy qilganda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va mos ravishda sotish hajmini oshishi, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushumning oshishi, foyda va daromad hajmini oshishi, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarishdagi brakning kamayishi kabi erishiladigan natura yoki pul ko‘rinishidagi ijobjiy natijalar samarani bildiradi. Samaradorlik, esa korxona faoliyatida samaraga erishish uchun qilingan ishlarning sifat jihatdan tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan samaradorlik tushunchasi murakkab va kompleks xarakterga ega bo‘lib, erishilgan samarani shu samaraga erishish uchun qilingan harajatlar, amalga oshirilgan ishlar majmui (iqtisodiy resurslar) ga nisbati sifatida aniqlanadi. Boshqacha tushuntirganda, amalga oshirilgan ishlar tufayli korxona ma’lum samaraga erishadi, lekin shu ishlarning samaradorligi past bo‘lishi mumkin. Masalan, korxonada ishchilar sonini ko‘paytirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmi (samara) ni oshirishga erishiladi, lekin ishchilar sonining oshishi mehnat unumdarligi (samaradorlik) ko‘rsatkichiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

² Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari³.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida operatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni asosiy vositalar, TMZ lar va mehnat ko'rsatkichlari bo'yicha tasniflab olish tavsiya etamiz (2-rasm).

Xulosa qilib aytganda, korxonalar operatsion faoliyat tahlilining zarurligi va uning samaradorligining nazariy masalalarini tadqiq qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati, erishayotgan moliyaviy natijalari muhim ahamiyatga egaligiga qaramasdan, olimlarimiz tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Zero, xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy daromad olib keluvchi operatsion faoliyat natijalari, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari bugungi kun tahliliy izlanishlarining asosini tashkil etishi kerak. Ushbu jihatlarni inobatga olib, tadqiqot ishimizda korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatida operatsion faoliyat natijalarining ahamiyati, operatsion faoliyati tahlilining mazmuni va uni tashkil etish zururligi masasalalari ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Klichev, B. (2024, февраль 23). Inson kapitalini rivojlantirishda ishchilar harakati tahlili. Ilm-fan taraqqiyotida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish

³ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

va kambag'allikni qisqartirish, Farg'ona, O'zbekiston.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10901976>

2. Кличев, Б. (2021, май 21). Махсулот (иш, хизматлар) га баҳо шакллантириш масалалари. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647005>

3. Кличев, Б. (2021, май 21). Ўзбекистонда ишбилармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10646960>

4. Кличев, Б. (2021, май 5). Ишбилармонлик фаоллиги индекси таҳлили. Biznes-tahlilni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647021>

5. Кличев, Б. (2022, сентябрь 16). Операцион фаолият таҳлилида харидор танлови асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари. Инновацион ёндашув асосида молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларини жорий этиш. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647059>

6. Кличев Баҳтиёр Пардаевич. (2024). Ишчилар қўнимсизлиги таҳлили. World Scientific Research Journal, 23(2), 287–294. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3042>

7. Pardayevich, K. B. (2022). ANALYSIS OF PRODUCT PRICING BASED ON PRODUCT PARAMETERS AND CUSTOMER CHOICE. Journal of new century innovations, 6(1), 67-79

8. Adurahimov, A. Z., & Ergashov, I. O. (2023). Ta'lilda texnologiyalarni qo'llash hamda xorijiy tillarni o'rgatish orqali mutaxassislarni malakali kadr sifatida chiqarish islohatlari. Scientific approach to the modern education system, 2(18), 62-64.

9. Adurahimov, A. Z., & Ergashov, I. O. (2023). Kichik biznesga qanday yengilliklar beriladi, kimlar 20 mln yoki 30 mln to'lasa soliq hisobotini yuritishi shart emas, 2023 yilgi soliq o'zgarishlari. ijodkor o'qituvchi, 3(32), 30-32.

10. Қиличев Ботир Пардаевич. (2024). COVID-19 пандемиясидан кейин туризмни ривожлантириш йўналишлари. Образование наука и инновационные идеи в мире, 39(2), 130–134. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/11578/11219>

11. САГДИЛЛАЕВА, З. А., & ЧОРИЕВ, И. Х. (2016). Проблемы аудита оплаты труда. In СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ И РЕГУЛИРОВАНИЯ: ПОИСК ОПТИМАЛЬНЫХ РЕШЕНИЙ (pp. 113-119).

12. Choriev, I., & Mamatqulov, A. (2018). THE EFFECT OF DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ON SEGMENTAL SEPARATION OF POPULATION. International Finance and Accounting, 2018(5), 12.

13. Тулаев Мирзакул Саламович. (2024). РАСЧЕТ РЕНТАБЕЛЬНОСТЬ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА (ROE) В УЗБЕКИСТАНЕ . World Scientific Research Journal, 23(2), 182–190. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3031>

14. Тулаев Мирзакул Саламович. (2024). МОЛИЯВИЙ ҲИСБОТЛАРНИ КОЭФИЦЕНТЛАР ЁРДАМИДА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ . World

Scientific Research Journal, 23(2), 149–162. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3028>

15. Юлдашев, Ж. А. (2023). Изучение современного состояния банковских поступлений, формы развития внутрибанковских и межбанковских расчетов. World scientific research journal, 12(2), 186-196.

16. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.

17. Yuldashev, J. A. (2022). Mechanisms of Customer Attraction Based on Marketing Strategies in Commercial Banks. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(10), 25–32. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1313>

18. Самадова, Н. Р. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE. World scientific research journal, 23(2), 174-181.

19. Samadova Nargiza Rasulovna. (2023). Ways to Analyze Financial Potential Based on the Balance Sheet. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(12), 65-67. Retrieved from <https://cajitmfcentralasianstudies.org/index.php/CAJITMF/article/view/661>

20. Маматкулов, А. Х. (2023). Пахтани қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари бўйича таннархни хисоблаш усулларини такомиллаштириш. Gospodarka i Innowacje., 41, 142-145.

21. Маматкулов, А. (2017). Совершенствование учета затрат в производственном учете на хлопкоперерабатывающем предприятии. Экономика и инновационные технологии, (3), 111–117. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9264

22. Rozmatovna, Y. U. (2022). Improvement of Intangible Assets Accounting and Auditing. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 102-104.

23. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI TARTIBLASHDA BOZOR MEXANIZMI . Journal of New Century Innovations, 30(3), 12–13. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/7342>

24. Nurmanov, U. A. (2022). Budgeting in the management of current assets. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).

25. У.А. Нурманов. (2024). Жорий активларни бошқаришда тизимли ёндашишни такомиллаштиришнинг муҳимлиги. World Scientific Research Journal, 23(2), 277–286. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3041>

26. Yuldasheva, U. A. (2022). THE IMPACT OF THE TAX BURDEN ON THE FINANCIAL ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 1(1), 55-63.

27. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2024). WAYS TO OPTIMIZE THE TAX BURDEN ON ORGANIZATIONS IN THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN. American Journal of Business Management, Economics and Banking, 20, 248–253. Retrieved from <https://www.americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/1782>

28. Yuldasheva, U. (2022). IQTISODIYOTNING XALQARO INTEGRATSIYASIDA INVESTITSIYALARING O'RNI VA AXAMIYATI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 336–345. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2742>

29. Юлдашева, Д. А. (2024). ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ОЦЕНКИ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ. *World scientific research journal*, 23(2), 57-66.

30. Yuldasheva D.A. (2023). INFORMATION AND ANALYTICAL BUSINESS ENVIRONMENT AND ITS INTERACTION WITH ACCOUNTING IN THE DIGITAL ECONOMY. European Journal of Research Development and Sustainability, 4(1), 9-12. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrdss/article/view/3106>

31. Сагдиллаева, З. А. (2024). ФИНАНСОВЫЙ АНАЛИЗ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *World scientific research journal*, 23(2), 191-198.

32. Сагдиллаева, З. А. (2024). СОДЕРЖАНИЕ И ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ, СФОРМИРОВАННЫЙ НА ОСНОВЕ МСФО. *World scientific research journal*, 23(2), 437-442.

33. Sardor Umarovich Kholdorov (2022). Investitsion loyihalarini moliyalashtirishda xavflarni baholash va boshqaruv masalalari. "The processes of digital transformation in the economy, finance and management in the context of a pandemic", 6, 916-927 pp.

34. Сардор Умарович Холдоров (2022). Рақамли иқтисодиёт шароитида инвестицион фаолиятини молиялаштириш истиқболлари. “Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси: мақсад, тамойиллар ва ривожланиш истиқболлари”, 3, 326-329 б.

35. Абдуллаев Аброр Бозарбоевич. (2023). Корхона солик мажбуриятларини самарали бошқаришни таъминлашда солик аудитининг роли. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 134–142. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2871>

36. Абдуллаев, А. Б. (2019). Совершенствование учета и анализа налогов improvement of accounting and analysis of taxes. ББК 65.052 Б 94, 10.

37. Абдуллаев Аброр Бозарбоевич. (2023). Солик таваккалчилигини бошқаришда солик аудитининг роли ва вазифалари. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 166–175. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2874>

38. Abdullayev, A. B., & Ochilov, O. I. (2021). A new approach to the methodology of tax analysis. *Asian Journal of Research in Business Economics and Management*, 11(9), 19-25.

39. Якубов Улугбек Касимович. (2024). Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий- иқтисодий ҳолатини таҳлилида ташқи иқтисодий

фаолият кўрсаткичларидан фойдаланиш масалалари. World Scientific Research Journal, 23(2), 428–436. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3055>

40. U.Yakubov, Q.Altiyev, Sh.Maxmudova. (2022). Biznes tahlilda raqamli texnologiyalar. (Darslik). –T.: “Nihol print”, 236 b.

41. Abdullaevich, K. M. (2020). Issues to enhance financial literacy on extrabudgetary targeted funds. International Journal of Research in Social Sciences, 10(8), 129-135.

42. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Яширин иқтисодиётга қарши курашишда фискалъ сиёsat, хорижий тажриба, муаммо ва ечимлар. World Scientific Research Journal, 23(2), 257–265. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3039>

43. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Солик маъмурчилигида молиявий технологиялар – хуфиёна иқтисодиётни қисқартириш омили сифатида. World Scientific Research Journal, 23(2), 266–276. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3040>

44. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Кўшилган қиймат солиғини қўллашнинг халқаро амалиётдаги моделлари. World Scientific Research Journal, 23(2), 295–302. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3043>

45. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Хуфиёна иқтисодиёт шароитида фискал сиёсати ва унинг назарий асослари. World Scientific Research Journal, 23(2), 303–313. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3044>

46. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Божхона тўловларини ундиришда молиявий технологияларини қўллаш амалиётини такомиллаштириш. World Scientific Research Journal, 23(2), 314–324. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3045>

47. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish va normativ-huquqiy asoslari. World Scientific research Journal, 23(2), 344–351. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3048>

48. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2024). Fiskal siyosat bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va uni qo‘llash muammolari. World Scientific Research Journal, 23(2), 352–361. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3049>

49. Dusiyarov, S. K. (2021). Issues Of Supporting Activities Of Business Entities Through Improving Tax Administration In Uzbekistan. Academicia Globe, 2(11), 51-59.

50. Dusiyarov, S. X. (2023). Stages of entrepreneurship development in uzbekistan and its role in the national economy. Modern Science and Research, 2(6), 16-25.

51. Дусияров Ш. (2021). Кичик тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига солиқларнинг таъсири таҳлили, Iqtisodiyot va ta’lim, 2021, 6, 105-109. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/289>.

52. Дусияров, Ш., Чоршанбаев, У., & Муратжанова, Л. (2024). Саноатни модернизациялашда самарали солиқ механизмларидан фойдаланиш йўллари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 367-376.
53. Fayziev, F. (2021). Маҳаллий бюджет даромадларини оширишда мулкий соликларнинг аҳамияти. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/305>
54. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2024). Ўзбекистонда ўзини ўзи банд қилиш: ривожланиш истиқболлари ва солиқ тизимидағи ўрни. *World Scientific Research Journal*, 23(2), 387–402. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3052>
55. Abdullakhojaevich, F. F. (2020). Peculiarities of assessing real estate by market value for the taxation purpose. *International Journal of Research in Social Sciences*, 10(7), 92-100.
56. Файзиев, Ф. (2020). Солиқ солиш мақсадида қўчмас мулкни бозор қийматида баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари. Экономика и инновационные технологии, (1 (2)), 218-227.
57. Хамирова Сулув Янгибоевна. (2023). Халқаро амалиётда ички аудиторлик текширувларини ўtkазиш услубиётини ва ички аудитнинг халқаро стандартларини такомиллаштириш асослари. "XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(8), 8–22.
58. Хамирова С.Я. (2023). Молиявий ҳисоботларни трансформация қилиш ва параллел усувларда тузишнинг ташқилий жиҳатлари. "Conference on Universal Science Research 2023", 1(8), 18–23.
59. Yuldashev, J. A. (2023). Marketing Principles of Formation of Reserve Funds in the Practice of Commercial Banks. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(5), 1–6. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejbss/article/view/1650>
60. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2022). ISSUES OF PRODUCT PRICING IN THE ANALYSIS OF OPERATIONAL. Пандемия шароитида иқтисодиёт, молия ва бошқарувда рақамли трансформация жараёнлари (IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6641015>
61. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning maksimal hajmi tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 5 (2023), 187–192.
62. Қличев Баҳтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . *World Scientific Research Journal*, 12(2), 263–271. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2557>
63. Қличев, Б. П. (2022). Маҳсулот сотиш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(5), 1719-1728.